

O‘ZBEKISTON VA AQSH PREZIDENTLARI HUJJATLARINING QIYOSIY - HUQUQIY TAHLILI

Jahongir Qurbanov

Toshkent davlat yuridik universiteti katta o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20641362>

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidentining hujjatlari huquqiy jihatdan qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda Prezident hujjatlarining huquqiy tabiati, ularni qabul qilish tartibi, yuridik kuchi hamda ularning davlat boshqaruvidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston va AQShda Prezident vakolatlarining konstitutsiyaviy asoslari, hujjatlar tizimi va ularning huquq tizimdagi huquq manbalari sifatidagi ahamiyati solishtirilib, o‘xshash va farqli jihatlar aniqlangan. Maqola yakunida Prezident hujjatlarini takomillashtirish borasida tegishli taklif va xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari, AQSh Prezidenti hujjatlari, farmon, qaror, farmoyish, administrative order, proclamations, executive orders va boshqalar.

Mustaqil davlatlarning siyosiy va huquqiy tizimida Prezidentlik instituti alohida o‘rin tutadi. Prezident mamlakatning oliy davlat hokimiyat organi sifatida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy sohalarida davlat siyosatini belgilovchi hamda uni amalga oshiruvchi muhim shaxs hisoblanadi.

Bilamizki, rivojlangan davlatlarda davlat rahbarlari hujjatlar qabul qiladi, masalan, AQSh davlati anglo-sakson huquq oilasiga kiradi va bu davlat Prezidenti eng asosiy o‘rinda Federal qonunlarni imzolaydi, siyosiy boshqaruv bo‘yicha majburiy normativ buyruq (Executive Order) lar chiqaradi. Bir so‘z bilan aytganda, Executive Orders (Farmonlar) Proclamations (E‘lonlar), Presidential Memoranda va Federal qonunlarni imzolash yoki veto huquqiga ega, yoki Germaniya FRda Prezident Bundesrat va Bundestag qabul qilgan qonunlarni tasdiqlaydi.

Anglo-sakson huquq oilasiga kiruvchi AQSh, roman-german huquq oilasiga kiruvchi O‘zbekistonda davlat rahbarlari umumiy olganda quyidagi hujjatlarni tasdiqlaydi yoki qabul qiladi: O‘zbekistonda davlat rahbari **qonunlarni tasdiqlaydi, farmon, qaror va farmoyishlar** qabul qilsa, AQShda esa **Executive Orders** (Farmonlar) **Proclamations** (E‘lonlar), **Presidential Memoranda**¹ (Prezident memorandumasi) va **Federal qonunlarni imzolash** yoki **veto**² huquqiga ega hisoblanadi.

Shu bois Prezident tomonidan qabul qilinadigan hujjatlar sifatida farmon, qaror, farmoyish va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar — davlat boshqaruvining asosiy huquqiy vositalaridan biri sifatida e‘tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan chiqariladigan hujjatlar mamlakatda qonun ustuvorligini ta‘minlash, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va xalq farovonligini oshirishga qaratilgan bo‘lsa, AQSh Prezidentining hujjatlari asosan ijro hokimiyati faoliyatini tartibga solish, federal siyosatni belgilash va tashqi aloqalarda mamlakat manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

¹ AQSh Prezidenti tomonidan ijroiya hokimiyatdagi turli bo‘limlar va agentliklarning faoliyati, amaliyotlari va siyosatlarini boshqarish uchun chiqariladigan rasmiy hujjatdir. Bu hujjatning qonun kuchiga ega bo‘lishi mumkin va ko‘pincha vazifalarni topshirish, ma‘lum bir davlat agentligiga biror narsa qilishni buyurish yoki ma‘muriy jarayonni boshlash uchun ishlatiladi.

² Parlament qabul qilgan qonunni prezident ma‘qullamaydi va u kuchga kirmaydi. Mana shu rad etish “**veto**” deyiladi. Shuning uchun, AQSh Prezidenti kuchli veto huquqiga egadir.

Demak, har ikki davlat rahbari tomonidan qabul qilinadigan hujjatlarning huquqiy tabiatini aniqlashda, uning ikki xil huquqiy oilaga mavjud ekanligi ham hujjatlarning yuridik tabiati, uning huquq oilasida tutgan o'rni bilan ham ajralib turar ekan. Ya'ni, O'zbekiston huquqiy oila (tizim) ning roman-german (kontinental) turiga mansubligi bilan, AQSh davlati esa anglo-sakson (umumiy) huquqiy oila (tizimi) si tarkibiga kirishi bilan xarakterlanadi. Huquqshunoslikda bularni biz qiyosiy huquqshunoslik ilmi orqali yanada ko'proq bilib olishimiz mumkin. Yuqoridagi ikki xil oilaning bir biri bilan qanday farqli jihatlari bor, degan savol tug'ilishi tabiiy. Haqiqatan ham ushbu farqlar quyidagilarda ko'rinadi:

Birinchidan: anglo-saksonda asosiy huquq manbai -sud huquqi hisoblandi. Masalan, Angliyada qirol sudlarining qarorlari, parlament aktlarining sd qarorlariga mosligi, AQShda biron bir qonuning konstitutsiyaga mos yoki mos emasligi to'g'risidagi Oliy sudning qarorlari va hkz;

Ikkinchidan: anglo-sakson boshqa huquq oilalaridan kazual xarakterga ega bo'ladi;

Uchinchidan: anglo-sakson huquq oilasida moddiy emas, protsessual huquqning roli muhimroq.

To'rtinchidan: anglo-sakson huquq oilasida davlat hokimiyatining boshqa organiga nisbatan sud hokimiyati o'rni ustunroq;

Beshinchidan: anglo-sakson huquq oilasi (huquqiy tizimi)da deyarli konstitutsiya (angiya va kanadada) majud bo'lmaydi, aksincha konstitutsiyaviy aktlar bo'ladi, masalan, 1911-yil Angliyadagi parlament to'g'risidagi akt;

Endi, O'zbekiston Respublikasi avvaldan roman-german (kontinental) huquq oilasiga kiruvchi mamlakatlardan biridir, shuning uchun davlatimizda asosiy huquq shakli bu -**normativ huquqiy hujjatdir**. Davlat rahbari esa mana shu huquq ijodkorligi jarayonida muhim subyekt sifatida ham ishtirok etadi, ham uning turlariga ham bevosita daxldor bo'la oladi.

Aslini olganda roman-german huquq oilasi (huquqiy tizimi)ning o'ziga xos jihati bo'lib, unda huquq manbasi (shakli) sifatida **huquqiy aktlar, huquqiy odatlar, huquqning umumiy tamoyillari** bilan bir qatorda, **sud pretsedentlari, amaliyoti, normativ shartnomalar va doktrinalar** ham muhim rol o'ynaydi. Lekin, ba'zi davlatlarda, masalan, anglo-sakson huquq oilasiga kiruvchi davlatlarda sud amaliyoti yoki sud huquqi eng asosiy manba ekanligi, hattoki dalvat rahbarlarining hujjati ham suddan keyingi huquq shakli ekanligini anglatib turadi. Bunga demak, AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya davlatlarini misol qila olish mumkin.

Roman-german huquqiy tizimida huquqiy aktlarni tizimlashtirishga, fuqarolik, savdo va tijorat huquqining mustqil huquq sohasi sifatida rivojlanib borayotganligini, huquq tizimini ommaviy va xususiyga ajratilganligini va eng asosiysi qonun eng asosiy huquq manbasi ekanligini ham ko'rish mumkin.

Bugungi globallashuv sharoitida turli davlatlar tajribasini o'rganish, xususan, AQSh kabi demokratik tizimi rivojlangan mamlakat Prezidentining hujjatlar tizimini tahlil qilish orqali O'zbekistonda Prezident faoliyatining huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish imkonini tahlil qilish, bir muncha mushkulroq bo'lishi mumkin. Chunki asosiy farq, ularni ikki xil huquq oilasiga tegishli ekanligidir. Lekin, mazmunan davlat boshqaruv sohasida muhim strategiyalarni belgilab bera oladi.

Hamma davlatlarda Prezident hujjatlari siyosiy va huquqiy jihatdan davlat boshqaruvi sohasida muhim vositalaridan biri hisoblanadi. U turli mamlakatlarda turlicha shakllarda mavjud bo'lib, uning yuridik kuchi, chiqarilish tartibi va maqsadi davlatning siyosiy-huquqiy tizimiga bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy hujjatlari (farmon, qaror va farmoyish) Konstitutsiyasida³ va “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi⁴ qonunida belgilangan bo'lsa, AQSh Prezidentining hujjatlari yagona AQSh Konstitutsiyasining II moddasi (Article II)⁵ belgilab berilgan.

Amaliyot va milliy bazaga qaraladigan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezident farmoyishlari **birinchidan**, individual hujjat sifatida ko'rish mumkin. Ular tashkiliy, kadrlar, moliyaviy va boshqa amaliy masalalarni hal etishga xizmat qiladi. Shuningdek, ayrim hollarda farmoyishlar normativ tusga ega bo'lishi mumkin, lekin bu ularning asosiy huquqiy xususiyati emas; **ikkinchidan**, farmoyish boshqaruvga doir huquqiy hujjat, **uchinchidan**, Konstitutsiyaviy huquqda davlat boshlig'i va ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan vakolatlari doirasida chiqariladi va **to'rtinchidan**, ijro etuvchi hokimiyat organining tez hal qilinishi kerak bo'lgan va boshqa joriy masalalarga oid qarori farmoyish shaklida chiqariladi.

Lekin, Konstitutsiyadan belgilangan darajasiga ko'ra, farmoyishlar farmon va qarorlardan yuridik kuchi jihatidan past turadi, ammo ular Prezidentning bevosita ijro hokimiyati ustidan nazoratini amalga oshirish vositasi sifatida muhim rol o'ynaydi. Amaliyotda ularning qamrovi kengayib bormoqda, ayniqsa iqtisodiy va moliyaviy boshqaruv sohalarida.

Ayni vaqtda qonunchilik hujjatlarida Prezident hujjatlaridan Farmon va qarorga aniq ta'rif berilmagan. Lekin, huquqni qo'llash amaliyotidan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, **farmon** – tor ma'noda faqat Prezident tomonidan qabul qilinib, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjat yoki **qonunosti hujjatlaridir**. Shuningdek, u jamiyat hayoti sohalarini isloh qilish, davlat organlarini tashkil etish yoki tugatish (vah.k.) masalalarida qabul qilinadi. **Qaror** - Prezident, Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, hokimlar tomonidan ham u yoki bu masalani hal etish vazifasi yuklanib qabul qiladigan rasmiy hujjat yoki **qonunosti hujjatlaridir**. Yoki davlat organi yoki mansabdor shaxsning o'z vakolati doirasida qabul qiladigan va biror oqibat keltirib chiqaradigan hujjat yoki **qonunosti hujjatidir**⁶.

Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Konstitutsiyasiga muvofiq⁷, Amerika Qo'shma Shtatlari davlat va ijroiylar hukumat boshlig'i hamda Amerika Qo'shma Shtatlari **armiyasi** va **floti** bosh qo'mondonidir.

AQSh Prezidenti tomonidan qabul qilinadigan **rasmiy hujjatlar** bir necha turga bo'linadi. Ular Prezidentning konstitutsiyaviy vakolatlariga, siyosiy va ijro hokimiyati faoliyatiga qarab farqlanadi.

–**Executive Order (Ijro farmoyishi / Prezident farmoni)**. Bu Prezidentning ijro hokimiyatiga oid rasmiy hujjati bo'lib, davlat siyosatini amalga oshirish yoki mavjud qonunlarni bajarish bo'yicha ko'rsatma beradi. U normativ xarakterga ega bo'lishi mumkin. Masalan: federal agentliklarga topshiriq berish, siyosiy dasturlarni amalga oshirish, milliy xavfsizlikka doir chora-tadbirlarni belgilash. Masalan, sobiq prezident Franklin Ruzveltning 1942-yilda qabul qilgan 9066-sonli farmoni (Yapon-amerikaliklarning internatsiyasi to'g'risida);

–**Proclamation (Prezident e'loni yoki farmoyishi)**. Bu Prezidentning rasmiy **bayonoti** bo'lib, u orqali muayyan voqeani e'lon qiladi yoki muhim ijtimoiy-huquqiy masalaga e'tibor qaratadi. Ba'zida huquqiy kuchga ega bo'ladi, ba'zida esa faqat siyosiy-tashviqot ahamiyatiga ega.

³ <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445984>

⁴ <https://lex.uz/docs/-5378966#-5380904>

⁵ <https://constitutioncenter.org/the-constitution/articles/article-ii>

⁶ O'zbek tilining izohli lug'atida qaror so'zi: “rasmiy organ, tashkilot, majlis, mansabdor shaxs va shu kabilarning biror ish, masala yuzasidan bamaslahat qabul qilgan to'xtami, hukmi” deb sharhlangan.

⁷ <https://constitutioncenter.org/the-constitution/articles/article-ii>

Misol uchun, Mustaqillik kuni, Mehnat kuni yoki Milliy xavfsizlik haftaligini e'lon qiluvchi e'lonlar;

– **Presidential Memorandum (Prezident eslatmasi yoki memorandum).** Bu ijro hokimiyati organlariga yo'llanadigan rasmiy topshiriq yoki eslatma hujjati. Bu qaysidir jihatdan **executive order**ga o'xshash, ammo ko'pincha kamroq rasmiy shaklda bo'ladi. Masalan, muayyan siyosat yo'nalishlari bo'yicha yangi strategiya ishlab chiqish topshirig'i;

Presidential Determination or decret (Prezident qarori). AQSh qonunlariga muvofiq ayrim holatlarda Prezidentning shaxsiy qarori zarur bo'ladi. Bu hujjat ko'pincha tashqi siyosat yoki mudofaa masalalarida qabul qilinadi. **Misol:** Bir davlatga iqtisodiy yordam ajratish yoki sanksiyalarni qo'llash to'g'risidagi qarori;

– **Presidential Directive (Prezident ko'rsatmasi).** Bu, asosan, milliy xavfsizlik va mudofaa siyosati bilan bog'liq hujjatdir. Maxfiy yoki cheklangan foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Masalan, terrorizmga qarshi kurash strategiyasini tasdiqlash haqida ko'rsatma;

– **Veto Message (Veto xabarnomasi).** Prezident tomonidan Kongress qabul qilgan qonunni imzolamaslik haqidagi rasmiy **rad javobi**. Bu ham Prezident hujjatlaridan biri bo'lib, unda qonun loyihasining rad etilish sabablari bayon qilinadi.

– **Signing Statement (Imzolash bayonoti).** Prezident qonunni imzolayotganda unga **tushuntirish yoki sharh** beruvchi hujjatdir. Bu orqali Prezident qonunning ayrim qoidalariga o'z munosabatini bildiradi yoki uni qanday tatbiq etishni ko'rsatadi.

Xulosa shuki, AQSh Prezidentining hujjatlari huquqiy kuchi jihatidan bir xil emas, ayrimlari, masalan, Executive Order majburiy kuchga ega bo'lsa, boshqalari, masalan, Proclamation yoki Memorandum faqat siyosiy yoki ma'muriy ahamiyat kasb etadi. Ularning barchasi Prezidentning ijro hokimiyati faoliyatini amalga oshirish vositasi hisoblanadi. Demak, AQSh Prezidentining hujjatlari ularning **huquqiy kuchi va maqsadiga ko'ra, quyidagicha** farqlash mumkin:

– **Ijro farmoyishlari (Executive Orders)** – eng muhim va majburiy kuchga ega hujjatlar;

– **Proclamation va Memorandumlar** – ko'proq siyosiy yoki ma'muriy ahamiyatga ega;

Veto va Signing Statementlar – qonun chiqarish jarayonida Prezidentning nazorat vositalari hisoblanadi.

AQSh prezidenti federal qonunlarni buzgani uchun sudlangan har qanday kishini afv etishi mumkin. Shunga prezident ham bzi kabi huquqni qo'llash hujjatini qabul qilishi ham mumkin. Bunda faqat prezident o'z-o'zini kechira olmaydi, chunki tergov yoki jinoyat uchun hukm vaqtida huquq bir zumda bekor qilinadi.

Prezident Kongress tomonidan qabul qilingan qonun loyihasini rad etish huquqiga ega. Shuningdek, o'z o'rnida, Kongress ham prezident inkorini bekor qilish uchun ovoz berishi mumkin.

AQSh Konstitutsiyasida “executive order” (farmoyishlar) tushunchasi bevosita tilga olinmasa-da, Prezidentning ijro hokimiyatini boshqarish vakolati asosida bunday hujjatlar chiqariladi. Executive order federal hukumat organlariga yo'riqnoma beradi va ma'lum darajada qonun kuchiga ega bo'ladi.

Farmoyishlar odatda Kongress tomonidan qabul qilingan qonunlarga zid bo'lmasligi kerak va ular AQSh Oliy sudi tomonidan bekor qilinishi ham mumkin. Bu sud nazorati tizimi ijro hokimiyatining cheksiz kuchga ega bo'lishining oldini oladi. Bunday hujjatlar ichki siyosat, iqtisod, xavfsizlik, muhojirlik, ekologiya kabi ko'plab sohalarni qamrab oladi. Har bir farmoyish Federal Registerda rasmiy e'lon qilinadi, bu esa huquqiy aniqlik va ochiqlikni ta'minlaydi.

AQShda prezident farmoyishi kabi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ham farmoyish chiqarish vakolatiga ega ekani Konstitutsiyada bevosita qayd etilgan bo'lsa-da, biroq amaldagi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunnda Prezident farmoyishi normativ-huquqiy hujjat sifatida keltirilmagan. Bu tafovutning asosiy sababi — farmoyishlar odatda individual-huquqiy xususiyatga egaligi, ular ma'lum bir shaxsga, hodisaga yoki holatga nisbatan qabul qilinishidir (masalan, lavozimga tayinlash, mukofotlash, vazifa topshirish va boshqalar). Shu boisdan ular normativ hujjatlar ro'yxatiga kiritilmaydi.

Amaliyotda ayrim Prezident farmoyishlari normativ mazmunga ega bo'lishi mumkinligini ham ko'rish mumkin. Masalan, bir necha vazirliklarga topshiriq berish, byudjet mablag'larini taqsimlash yoki hukumat siyosatini muayyan sohalarida belgilash kabi holatlarda farmoyishlar kengroq huquqiy ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Bunday aralash holatlar huquqiy tizimda aniqlik yetishmasligiga olib keladi. Amaliyotda bu farmoyishlar normativ hujjatlardek tatbiq etilishi mumkin bo'lsa-da, ularning rasmiy huquqiy maqomi qonunchilik darajasida aniqlashtirilmagan.

Shuning uchun bu tafovutni bartaraf etish va Prezident farmoyishlari atrofidagi huquqiy noaniqliklarni yo'qotish uchun "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunga qo'shimcha yoki tushuntirish kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu o'zgarish Prezident hujjatlarining huquqiy kuchi, ularning sud nazoratiga ochiqligi va normativlik darajasini aniqlashtirishda muhim qadam bo'ladi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, har ikki mamlakat Prezidentlari farmoyish orqali ijro hokimiyatini boshqaradi, biroq ularning huquqiy tabiati va amaldagi kuchi sezilarli darajada farq qiladi. AQShda farmoyishlar qonun bilan barobar bo'lgan holatlarda ham sud nazorati ostida bo'lsa, O'zbekistonda bu vosita ko'proq amaliy boshqaruv vazifasini bajaradi. Bu esa Prezident farmoyishlarining normativlik darajasi, e'lon qilinish tartibi va huquqiy aniqligi borasida islohotlar zaruratini yuzaga keltiradi.

Prezident farmon va qarori haqida gap ketganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan hujjatlari normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi hamda farmonlar va qarorlar shaklida qabul qilinadi.

Nazariy jihatdan qaranganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining jamiyat hayotining alohida sohalarini isloh qilishga yoki davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilashga, davlat organlarini tashkil etishga (tugatishga) qaratilgan muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlari, demak **farmonlar shaklida**, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining boshqa hujjatlari — **qarorlar shaklida** qabul qilinadi.

Demak. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tezkor va boshqa joriy masalalar bo'yicha hujjatlari **farmoyishlar shaklida** qabul qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining normativ-huquqiy bo'lmagan hujjatlari (kadr masalalari, fuqarolik, afv etish, siyosiy boshpana berish, davlat mukofotlari bilan taqdirlash hamda harbiy va maxsus unvonlarni berish masalalar bo'yicha, boshqa individual tusdagi masalalar va h.k.) ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari shaklida qabul qilinishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagicha **xulosa qilish mumkin:**

–har ikki mamlakatda Prezident hujjatlari **davlat boshqaruvi mexanizmining markaziy bo'g'ini** hisoblanadi;

–O'zbekistonda Prezident hujjatlari **ko'proq normativ-huquqiy kuchga ega**, AQShda esa **siyosiy va ijro hokimiyatini muvofiqlashtirish vositasi** sifatida ishlatiladi;

–O‘zbekistonda qonunchilik tizimi **markazlashgan va kodifikatsiyalangan**, AQShda esa **demokratik nazorat ostida, lekin turli shakllarda** amalga oshiriladi;

–**O‘zbekiston Prezidenti hujjatlari** normativ-huquqiy hujjatlar tizimining bir qismi sifatida qonunlar bilan bir qatorda majburiy kuchga ega. Ular orqali davlat siyosati, islohotlar va ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar huquqiy jihatdan mustahkamlanadi;

–**AQSh Prezidentining hujjatlari** esa asosan ijro hokimiyati faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, siyosiy va ma‘muriy ahamiyatga ega bo‘lib, ular ko‘p hollarda federal qonunlarni ijro etish mexanizmini ta‘minlaydi;

–**O‘xshash jihat** shundaki, har ikki mamlakatda Prezident hujjatlari davlat siyosatining izchil amalga oshirilishini ta‘minlaydi va milliy manfaatlarni himoya qilishga xizmat qiladi;

–**Farqli jihat** shundaki, O‘zbekistonda Prezident hujjatlari ko‘proq normativ-huquqiy kuchga ega bo‘lsa, AQShda ular asosan ijro va siyosiy xarakterga ega hujjatlar tizimini tashkil etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagilar taklif sifatida berilmoqda:

–O‘zbekistonda farmoyishlarning huquqiy maqomini aniqroq belgilash va turkumlashtirish zarur. Natijada davlat hokimiyatida farmoyishlarning o‘z darajasi va maqomi aniq bo‘ladi;

–AQSh tajribasi asosida farmoyishlar ustidan mustaqil huquqiy nazorat mexanizmlarini joriy etish mumkin. Bilamizki, AQShda prezidentning ijro hujjatlari (Executive Orders va boshqa ko‘rsatmalar) **mutlaq bo‘lmaydi**. Ular ustidan uchta asosiy mustaqil (konstitutsiyaviy, parlament va fuqarolik jamiyati) nazorat mavjud;

–Mamlakatimizda farmoyishlarning ochiqligi va shaffofligini ta‘minlash maqsadida ularni to‘liq e‘lon qilish tizimini mustahkamlash lozim;

– Mamlakatimizda farmoyishlar bilan bog‘liq sud amaliyoti va sharhlarni huquqshunoslik ta‘limida keng tatbiq etish maqsadga muvofiq;

–O‘zbekiston Prezidentining hujjatlarini tayyorlash va qabul qilish jarayonini yanada takomillashtirish maqsadida xalqaro tajribani, xususan, **AQSh amaliyotini** o‘rganish foydali bo‘ladi;

–Prezident hujjatlarining **huquqiy monitoringi tizimini** kuchaytirish, ularning bajarilish samaradorligini baholovchi maxsus mexanizmni joriy etish zarur;

–Prezident hujjatlarining **axborot ochiqligini** ta‘minlash va fuqarolar uchun ularning mazmuni, maqsadi va ahamiyatini tushuntirish bo‘yicha targ‘ibot ishlarini kengaytirish lozim;

–AQSh tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekistonda ham **memorandum yoki direktiva shaklidagi hujjatlarni** qo‘llash orqali ijro hokimiyatining muayyan sohalarini yanada samarali boshqarish mumkin;

–Prezident hujjatlarini ishlab chiqish jarayonida **ilmiy-huquqiy tahlil, ekspertiza va xalqaro taqqoslash metodlarini** keng qo‘llash tavsiya etiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05. 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonuni. 20.04.2021.
3. F. Hayitboyev, M.Najimov. Hozirgi zamon asosiy huquqiy tizimlar. O‘quv qo‘llanma. –T. TDYI nashriyoti. 2010. 216 bet.
4. В.М.Шумилов.Правовая система США. Москва. Издательско-консалтинговое “ДеКА”. 2003
5. Правовая система США: учебное пособие для вузов. Шумилов В.М., Акчурин Т.Ф., Shumilov V, Akchurin T. 2025.

6. Presidential Documents Guide [The U.S. National Archives and Records Administration]. URL: <http://www.archives.gov/presidentiallibraries/research/guide.html> (retrieved 13.10.2013).
7. Positive Law Codification in the United States Code [Electronic resource]. URL: http://uscode.house.gov/codification/positive_law_codification.pdf (retrieved 11.06.2015).
8. Legislation of the U.S. Congress [Congress.gov | Library of Congress]. URL: <https://www.congress.gov/legislation> (retrieved 31.01.2017).
9. Executive Orders Disposition Tables Index [The U.S. National Archives and Records Administration]. URL: <http://www.archives.gov/federalregister/executive-orders/disposition.html> (retrieved 31.01.2017).
10. Петрова Е. А. Система источников современного американского права (теоретический и сравнительно-правовой аспекты): дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.01 / Петрова Екатерина Алексеевна. – СПб., 2004. – 205 с.
11. Burrows V. K. Executive Orders: Issuance, Modification and Revocation. December 13, 2011 [Electronic resource]. URL: <http://www.hsdl.org/?view&did=719425> (дата обращения: 05.05.2015).
12. Chu V. S., Garvey T. Executive Orders: Issuance, Modification and Revocation. April 16, 2014 [Federation of American Scientists]. URL: <http://www.fas.org/sgp/crs/misc/RS20846.pdf> (дата обращения: 05.05.2015).
13. Hart S. J. Ordinance-Making Powers of the President of the United States. 1923. Ch. I.
14. Olson W. J., Woll A. Executive Orders and National Emergencies: How Presidents Have Come to “Run the Country” by Usurping Legislative Power // Cato Policy Analysis. 1999. No. 358.
15. <https://constitutioncenter.org/the-constitution/articles/article-ii>
16. www.lex.uz